

## ODAM QOMATINI TASVIRLASH METODIKASINI TALABALARGA O’RGATISH

**Nurnazarov Xudoyberdi Doniyorovich**

*A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik talim tasviriy san’at fanlari  
kafedrasi o’qituvchisi, Jizzax sh., O’zbekiston  
[e-mail:nurnazarovxudoyberdi@gmail.com](mailto:nurnazarovxudoyberdi@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Tasvirlashda eng murakkab jarayonlardan biri odam gavdasini ishlashdr. Chunki bu jarayonda insonning ruhiy kechinmalari, yashash tarzi, butun hayoti uning kiyinishi, yurishi, holati, yuz tuzilishi vahokazlarda aks etadi. Bu esa ijodkordan yuqori darajadagi mahoeratni talab etadi. Bu maqolada odam gavdasini ishlash metdolari haqida qisqacha so’z yuritganmiz.

**Abstract.** One of the most complex processes in imaging is working with the human body. Because in this process, a person's mental experiences, way of living, his whole life are reflected in his clothes, gait, posture, facial structure, etc. This requires a high level of skill from the creator. In this article, we talked briefly about the methods of working with the human body.

Odam gavdasi qalamtasvirini ishlashdan oldin, uning mukammal qalamtasviri, konstruktiv qurilishi umumiy, yaxlit - shakl va mayda bo’laklar ifodasini puxta o’rgangan bo’lishi kerak. Shaklni mohirona topa bilish, nisbatlarni to’g’ri aniqlash, yaxlit va mayda detallarning anatomik va konstruktiv qurilmasini to’g’ri topish natijasida ko’zlangan natijaga erishish mumkin.

Qalamtasvir — shaklning to’g’ri qurilishi tus va rang echimining birligidadir. Kimki grizayl texnikasida odam tasvirini maromiga etkazib bajara olsa, Qalamtasvirni ham muvaffaqiyatli chiqishiga zamin yaratgan bo’ladi.

Odam qomatining Qalamtasvirida uning xajmi, sirt, muhit sifatlari, rang yaxlitligi va mayda shakl ifodasini doimo solishtirib turish va fikr yuritib ishlash natijasida yaratiladi. Dastlabki rang qoplamadan boshlab, keyingi ishlovlargacha ochib beruvchi shakl xarakterini ish yakunida qanday bo’lishini hisobga olib rejalashtirish kerak bo’ladi. Yoritilishiga qarab rang yorqin, xira va och bo’lishi mumkin. Xuddi bosh Qalamtasviri kabi odam qomatining Qalamtasvirini ishlashda ham kompozitsiya ustida izlanib, bir necha ranglavhalar bajariladi. Eng chiroyli plastik echim tanlanadi. Bu eskizlarda gavdaning kompozitsion-plastik echimi, rang echimi tanlanadi, o’lcham aniqlanadi. Model xarakterini ocha turib, rassom barcha psixologik nyuanslardan, xarakterli xususiyatlardan eng ifodaligini ajratib topishi zarur. Kiyimsiz gavda tasvirida tana rang xususiyatlarini uning atrof-muhit

bilan bogʻliqligini ifodalash kerak. Odam tana rangi oʻzining tabiiy rangidan tashqari nozik koʻz bilan ilgʻash juda qiyin issiq - sovuq, och-toʻq tuslanishlarga ham ega boʻladi.

Odam tanasidagi ranglarning turlicha boʻlishi birinchi navbatda qon tomirlarining chuqur yuzada boʻlishi, tanadagi yogʻ qatlamiga, teri yuzasi xarakteriga bogʻliq. Koʻkrak, qorin yoki elka rangidan son terisi rangi tizza yoki oyoq tovon rangidan farq qiladi. Yuz, qoʻl, boʻyin odatda tananing yopiq qismlardan toʻqroq boʻladi. Tanadagi ranglar jilosi albatta reflekslarga ham bogʻliq. Tananing yuqori qismiga shiftdan, oyoq qismiga poldan reflekslar tushib turadi. Bundan tashqari, fon va kiyimlar taʼsirini ham sezish mumkin. Yuz, tana, kiyimlarda fondan qoʻshimcha toʻldiruvchi ranglar boʻladi.

Yalangʻoch qomatni ishlash jarayoni toʻgʻrisida professor O.E. Braz shunday degan: "Siz gavdaga yaxlit qarab koʻrishni oʻrganing, busiz Qalamtasvir yozib boʻlmaydi. Yaxlit boʻlaklarni doimo solishtiring, boʻyin va tizza, qorin va oyoqlarga qarang, yaxlitlikda ranglar kuchini toping". Shunday boʻlishi mumkinki, talaba naturani alohida boʻlaklarga boʻlib koʻchiradi, natijada ish sifati buziladi.

Ikki kishilik qoʻyilmada gavdalarni birgalikda ishlang, alohida-alohida ishlashga yoʻl qoʻymang. Sizga yaqin turgan gavdaning tayanch nuqtasini toping, keyin masofani hisobga olgan holda ikkinchisini tasvirlang. Bir gavdani ikkinchisi bilan solishtirib guruh shaklida birgalikda yozish kerak (yaxlit narsa singari). Qaysi gavdaning asosiyligini (kata-likda va masofada) oldindan belgilab olish zarur. Gavda atrofidagi predmetlar rangi ishning Qalamtasvirechimiga katta taʼsir etadi. Shuning uchun gavdani tasvirlab turib, albatta, atrofda predmetlar rangi bilan ham solishtirib turish shart. Albatta bu ikkinchi darajali qoʻshimcha detallarga asosiy obʼekt boʻlgan odam gavdasidek ishlov berilmaydi. Gavdani qoʻshimcha nozik ranglar bilan boyitib borish kerak. Lekin ularning jarangdorligini oshirib yuborish kerak emas. Boshlovchi rassomlar, odatda, issiq va sovuq ranglarning oddiy tarkibidan foydalanishadi. Murakkab issiq ranglarni qandaydir qizQish rang bilan sovuq ranglarni yashil, siyoxrang yoki koʻk rang bilan olishadi. Bunday ranglar tana sirti ifodasini bera olmaydi. Tanada deyarli har doim kamida 2-3 ranglar birikmasini ishlatish kerak. Oxra, siena, kuydirilgan suyak rangi kabi boʻyoqlar tanadagi sovuq hamda issiq ranglarni chiroyli ifodalaydi. Ularni oq bilan aralashmasi turlicha issiq hamda sovuq ranglar tuslanishini kashf etadi. Politrada boʻyoq turi koʻp boʻlmasligi kerak. Chegaralangan ranglar bilan koʻp rang va tuslar topishga harakat qilish kerak.

Ishning yakuniy qismi — yaxlitlash, ya'ni mayda detallarning bir butunlikka bo'ysinishidir. Bu ishda asosiy bo'laklarning tus echimiga e'tibor berish kerak. Agar ola-bula chiporlik yaxlitlikka xalaqit bersa, ularga ishlov berish kerak. Naturani yaxlit ko'rishga xalaqit berayotgan har bir bo'lakni o'z joyiga qo'yish kerak. Agar shunday qilmasak, qo'shimcha detallar asosiy ob'ektdan chalgitib, diqqatni tortadi, yaxlitlikni buzadi. Agar rassom yaxlit ko'rishni o'rgangan bo'lsa, tasvirni oqilona bajaradi. Bu bosqichda gavda siluetiga ham e'tiborni kuchaytirish darkor.

Tasvirda juda nozik tus farqini saqlab qolish kerak. Siluetning ba'zi joylarini kuchaytirib (chiziq orqali) ba'zi joylarni fon bilan qo'shib yuborish kerak. Qo'yilmada nimani bo'rtirib (chizib) nimani fonga yaqin tusda birlashtirib yuborishni hal etish zarur. Buni naturaga yaxlit qaraganda ajratib olish mumkin.

Shundan so'ng gavdaning to'g'ri konstruktiv qurilmasiga ega bo'lish mumkin. Nihoyat, portreti ishlanayotgan odamning ichki psixologiyasini ochishga ham urinib ko'rish mumkin. Bu narsaga detallarni yaxlitlab, asosiy xarakterli joylarini bo'rtirish bilan erishish mumkin.

Shuning uchun tasviri chizilayotgan odamni uning o'zi uchun xarakterli bo'lgan muhitda balki ish ustida tasvirlagan ma'qul.

Yuz ifodasi, qo'l va gavda xarakteri, rang aynan shu odamni xarakterlashi o'ta-muhimdir. Bu o'rganishlar, kuzatishlar portret kompozitsiyasi, plastik va kolorit echimining asosiga poydevor bo'la oladi.

Odam yuzi, qo'li, kiyimini ifoda etish. Yuz shakllari. Uzunchoq yuz to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'ladi, ya'ni peshona kengligi qariyb dahan kengligiga to'g'ri keladi. Bu, aslzodalarga xos yuz deb bilinadi. Yapon fiziognomistlarining tasdiqlashicha, Yaponiya hukmdorlaridan aksariyatining yuzi mana shunday shaklda bo'lgan ekan. Uzunchoq yuz aql-zakovat, ta'sirchanlik, vazminlikdan dalolat beradi. Aksari hollarda bunday yuz omilkor, mulohazali odamlarda uchraydi. Aytishlaricha, bunday kishilarda tashkilotchilik qobiliyati, maqsadga intiluvchanlik kuchli bo'ladi.

Uchburchak yuz uchun baland va keng peshona, turtib chiqqan yonoqlar, kichkina, lekin suyakdor burun, chuqur joylashgan ko'zlar, kichkina, lekin oldinga chiqqan dahan xosdir. Bunday yuzning lunjida et kam bo'ladi. Uchburchak yuzli kishilar (erkaklar va ayollar) nihoyatda serhissiyot, ta'sirchan, deb hisoblanadi. Bunday hakldagi yuz Yaponiyada yuksak iste'dod belgisi, deb bilinadi. Lekin ayni vaqtda yaponlar uchburchak yuzli kishining fe'l-atforida ayyorlik, boshqalar bilan chiqqisha olmaslik kabi xususiyatlar ham bo'lishini ta'kidlashadi.

Fiziognomistlarning fikricha, bunday kishilar fidokorlik, sadoqat kabi tuygʻularga begona. Yana aytishlaricha, josuslar va xoinlar orasida uchburchak yuzli kishilar juda koʻp uchrar ekan. Trapetsiyasimon shakldagi yuz uchburchak yuz bilan koʻp jihatdan mushtarak. Bunday yuz uchun, keng peshona va torayib boruvchi, lekin uchli boʻlmagan dahan xosdir. Shunday yuzli odam aql-idrokli, ta'sirchan, artistona tabiatli deb hisoblanadi, lekin kurashchanlik ruhi ularga xos emas. Yuzining trapetsiyasimon shakli yaqqol koʻrinib turuvchi ayollar nekbin - hamma narsaga umid va ishonch bilan qaraydigan boʻlishadi. Ular atrofidagilar uchun koʻngildagidek sharoit yaratib, baxtli hayot kechirishadi. Kvadrat shaklli yuz odatda badjahl, mard, koʻpincha qahri qattiq kishilarga xos. Ular odatda kaltafahm, koʻpincha koʻpol, keskin boʻlishadi. Qat'iyatlik bunday kishilarning fe'l-atvorida yaqqol koʻrinib turuvchi xususiyatdir. Boshqalar bilan dangaliga, roʻyiost muomala qilishadi. Kvadrat yuzli kishilar muvaffaqiyatga erishishga nihoyatda oʻch. Garchi oʻzlari zoʻr berib etakchilikka intilishsa ham, ulardan yaxshi ijrochilar chiqadi... Shunday yuzli ayollar esa hukmronlikka intiladi.

Yumaloq shaklli yuz Yaponiyada ochiq koʻngillik, mulonimlik, tinchliksevarlik ramzi deb hisoblanadi. Shunday yuzli kishilar koʻpincha shirin ovqatlar shinafondasi boʻladi. Maishiy qulayliklarni, dalkash davrlarni yaxshi koʻrishadi, shon-shuhratga intilishmaydi. Lekin ayni vaqtda bunday odamlarga izzattalablik hissi ham yot emas. Yumaloq yuzli odam, boz ustiga qanshari baland, yonoqlari turtib chiqqan, koʻzlari chaqnab turgan boʻlsa - maqsadga intiluvchandir. Fiziognomistlarning fikricha, bunday kishilardan ajoyib etakchilar va sarkardalar etishib chiqadi. Yapon fiziognomikasi yosh alomatlarini sistemasiga asoslanadi. Asosiy hayotiy alomatlar (qosh, koʻz, burun, ogʻiz, quloq) kabi yuz shakllari ham yoshni hisobga olgan holda baholanadi. Shu bois yuzni oʻqishga kirishishdan avval kishining yoshini albatta aniqlab olish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, operatsiya, chandiq, kosmetika tufayli kishi yuzining ayrim qismlari oʻzgarishi mumkinligini ham hisobga olish talab qilinadi. Bu oʻrinda oʻrganilayotgan odamning xatti-harakatidagi oʻzgarishlarni baholash usullari yordamga keladi. Kishining kulgusi, imo-ishoralari, gavdasini qanday tutishiga e'tibor berish kerak deb hisoblanadi.

Yaponlarning yuzida bir niqob bor desak kulgu uning ortiga yashiringan fe'l-atvor xususiyatlarini koʻrishga imkon yaratadi. Imo-ishora kishilarning muayyan kechikmalaridan ogoh qiladi, ularning xarakteriga doir qoʻshimcha ma'lumotlar beradi. Gavda xolati esa, aksari hollarda, kishi ruhiyatining oʻta yashirin xususiyatlarini koʻrsatadi. Biror alomatlarining barini tushuna olish, toʻgʻri talqin eta bilish, yapon fiziognomistlarining fikricha, u qadar oson ish emas. Yaponiyada

san'atning boshqa barcha turlari qatorida yuzni o`qish san'ati ham tirishqoqlik va sabr-toqat bilan, uzoq vaqt davomida o`rganiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdirasilov, N. Tolipov. Rangtasvir. -T.: “Bilim”, O`MKHTM. 2005.
2. B. Boymetov, S. Abdirasilov. Chizmatasvir. –T.: G`ofur G`ulom-matbaa ijodiy uy. 2004.
3. B. Boymetov. Portret qalamtasviri. -T.: Nizomiy nomli TDPU. 2001.